

**AVTOMOBIL YO'LLARIDA HARAKATLANAYOTGAN HAYDOVCHI VA  
PIYODALARNING XAVFSIZ HARAKATINI TA'MINLASH.**

Raxmonchayev Dilmurodjon To'lamirzayevich

"Transport vositalari muhandisligi" assistenti Andijon muhandislik instituti

Mamlakatimiz iqtisodiyoti oshib borgani sari, mamlakatimizda avtomobil yo'llarga va ulardan foydalanishni to'g'ri tashkil etishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda. Yo'l harakatini to'g'ri tashkil qilishning asosiy maqsadi yo'llarda xavfsiz harakatni boshqarish bo'yicha huquqiy, tashkiliy-texnik tadbirlar, boshqaruva harakatlari va har xil transport vositalarini yuqori tezlik bilan yo'lning turli bo'lagidan yilning har qanday ob-havo sharoitlarida xavfsiz o'tkazishdan iborat [2].

Sodir etilayotgan transport hodisalarining kun sayin ortib borishiga haydovchilarining yo'l qoidalarini qasddan mensimasligi va tajribasizligi sabab bo'lmoqda. Shu bois, muhtaram yurtboshimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich raisligida 2022 yil 11 fevral kuni o'tkazilgan "Yo'llarda inson xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari" mavzusidagi videoselektor yig'ilishida bu yil barcha hududlarda "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" umummilliy dasturi amalga oshirilishi ta'kidlandi. Unga ko'ra Qonunchilik palatasi va mutasaddi idoralarga yo'l harakatiga oid qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, tubdan takomillashtirish vazifasi qo'yildi. Chunki qo'pol qoidabuzarliklar, ularni takror sodir etish holatlari ortib ketgan. Jazo muqarrarligini ta'minlash maqsadida, bundan buyon, har bir huquqbazarlik uchun jarima ballari tizimi joriy etilishi belgilandi. Masalan, haydovchi tezlikni oshirsa, 1 ball, qizil chiroqda o'tsa, 3 ball hisoblanadi. Agar bir yilda qoidabuzarliklar jami 12 balldan oshsa, haydovchi avtomobil boshqarish huquqidан mahrum qilinadi va qayta imtihon topshirishi hamda avtomobilni tartibsiz boshqarib, boshqa haydovchilarga xalaqit qilganlik uchun alohida "yo'l bezoriligi", degan yangi javobgarlik turi kiritilishini ta'kidlab o'tdi [3].

Darhaqiqat, avtomobil yo'llarida harakat tartibsiz ravishda vujudga keladi. Har bir haydovchi o'ziga qulay harakat tartibini tanlaydi hamda o'zi tanlagan harakat tartibini boshqa harakat qatnashchilariga ta'siri bilan hisoblashmaydi. Shuningdek, turli rusumli avtomobilarning har xil dinamik sifati harakat tartibiga ta'sir qilishi muqarrar. Yo'llarda harakatlanishda avtomobilarning o'zaro ta'siri, harakat miqdori qancha ko'p bo'lsa, shuncha ortib boradi [4].

Muhtaram yurtboshimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan 2022 yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **qarori** qabul qilinishi va yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'naliishlari belgilab qo'yilishi ham fuqarolar sog'ligini taminlashga qaratilgan chora-tadbirlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi [5].

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashning dolzarb yo'naliishlari:



- avtomobil yo'llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo'l harakati ishtirokchilarining "piyoda - jamoat transporti - velotransport -

avtotransport" ustuvorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish;

- haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilgan holda, o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;
- haydovchi va piyodalarining yo'l harakati qoidalariga rioya qilish madaniyatini oshirish, har qanday qoidabuzarlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlash;
- yo'l harakati qoidalari asoslarini bolalikdan singdirishni yo'lga qo'yish, ushbu amaliyotni maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim mакtablarida joriy etish;
- yo'l harakatini tashkil etishni to'liq raqamlashtirish, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda, yangi boshqaruv va nazorat tizimlarini tatbiq qilish [6].

Avtohalokatlarni kun sayin ortib borishiga nafaqat haydovchilar balki, ayrim piyodalarining qoidalarga amal qilmasligi ham sabab bo'lmoqda. Halokatlarni oldini olish va ularning ayanchli oqibatlarini kamaytirish, piyodalar madaniyatini shakillantirish maqsadida piyodalarining majburiyatlari belgilab qo'yilgan [7].

Bunga ko'ra, piyodalar trotuarlardan, piyodalar yo'lkalardan, piyoda va velosiped yo'lkalardan, ular bo'limganda esa yo'l yoqalaridan harakatlanishi kerak. Hajmi katta yuklarni olib ketayotgan piyodalar, shuningdek, nogironlarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan shaxslarning trotuarlar yoki piyodalar yo'lkalardan harakatlanishi boshqa piyodalarining harakatlanishiga xalaqit berayotgan bo'lsa, ular qatnov qismining chetidan harakatlanishi mumkin [8].



1-rasm. Yo'llarda harakatlanishda piyodalar uchun belgilangan joylardan harakatlanish maqsadga muvofiq

Trotuarlar, piyodalar yo'lkalari, piyoda va velosiped yo'lkalari yoki yo'l yoqalari bo'lmasa yoxud ulardan harakatlanishning imkoniyati bo'lмагan hollarda, piyodalar velosiped yo'lkasidan yoki qatnov qismining chetidan (ajratuvchi mintaqaga bor yo'llarda qatnov qismining tashqi chetidan) bir qator bo'lib harakatlanishlari mumkin [9]. Qatnov qismi chetida harakatlanayotgan piyodalar transport vositalarining harakatlanishiga qarama-qarshi yo'nalishda yurishlari kerak [10]. Nogironlarning dvigatelsiz aravachasida harakatlanayotgan, mototsikl, moped, velosiped yetaklab ketayotgan shaxslar esa bunday hollarda transport vositalarining harakatlanish yo'nalishi bo'ylab yurishlari kerak [11].

Piyodalarning tashkiliy jamlanmasiga yo'lning qatnov qismida bir qatorda to'rt kishidan ortiq bo'lmasdan, faqat transport vositalarining harakat yo'nalishi bo'ylab o'ng tomondan harakatlanishga ruxsat etiladi [12].

Jamlanmaning oldi va orqasida chap tomondan qizil bayroqcha tutgan holda, sutkaning qorong'i vaqtida yoki yetarlicha ko'rinaslik sharoitida esa oldinda oq, orqada qizil rangli chiroq ko'targan kuzatuvchilar bo'lishi shart [13].



2-rasm. Bolalar guruhi yo'lni kesib o'tishini to'g'ri tashkil etish holati

Bolalar guruhini trotuarlar va piyodalar yo'l kalaridangina, ular bo'lmaganda esa yo'l yoqasidan faqat sutkaning yorug' vaqtida va katta yoshdagilar kuzatuvida olib yurishga ruxsat etiladi [14].

Piyodalar yo'lning qatnov qismini piyodalar o'tish joylaridan, shuningdek, yer osti va yer usti o'tish joylaridan, ular bo'lmaganda esa chorrahalarda trotuar chiziqlari yoki yo'l yoqasi bo'ylab kesib o'tishlari kerak [15].

Piyodalarga ko'rinasigan oraliqda o'tish joyi yoki chorraha bo'lmasa, ajratuvchi mintaqasiz va to'siqsiz yo'llardan yo'lning ikki tomoni yaxshi ko'rinasigan joyidan, qatnov qismining chetiga nisbatan to'g'ri burchak ostida kesib o'tishga ruxsat etiladi [16].

Yo'l harakati tartibga solingen joylarda piyodalar tartibga soluvchining yoki piyodalar svetoforining, ular bo'lmaganda esa transport svetoforining ishoralariga amal qilishlari kerak [17].

Tartibga solinmagan piyodalar o'tish joylarida, piyodalar yaqinlashayotgan transport vositalarigacha bo'lgan masofani va ularning tezligini chamalab ko'rib, o'tish o'zları uchun xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilganlaridan so'ng qatnov qismi (tramvay bekati)ga chiqishlari ruxsat etiladi.

Shuningdek, piyodalar yo'lni piyodalar o'tish joylaridan tashqarida kesib o'tishda transport vositalarining harakatlanishiga xalaqit bermasliklari, yaqinlashayotgan transport vositalarining yo'qligiga ishonch hosil qilmasdan turib, ko'rinishni cheklovchi to'xtab turgan transport vositasi yoki boshqa biror to'siq panasidan chiqmasliklari kerak [18].

Yo'lning qatnov qismida, shuningdek, piyodalar o'tish joylarida harakatlanayotgan piyodalarga telefondan foydalanish, video mahsulotlarini ko'rish, radio-audio mahsulotlarni

eshitish, kitob yoki davriy matbuot o'qish, hamda e'tiborni chalg'itadigan boshqa elektron vositalardan foydalanish taqiqlanadi [19].

Piyodalar to'xtab turgan avtobus va trolleybusning orqa tomonidan, tramvayning esa oldi tomonidan yo'lni kesib o'tishlari shart.

Yo'lning qatnov qismi (tramvay yo'llari)ga chiqqan piyodalar ushlanib qolmasliklari va to'xtamasliklari kerak. O'tishga ulgurmagan piyodalar xavfsizlik orolchasida, agarda u bo'lmasa qarama-qarshi yo'nalishdagi transport oqimlarini ajratuvchi chiziqda to'xtashlari lozim [20]. Keyingi harakatlanish xavfsiz ekanligiga ishonch hosil qilgandan so'ng va svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralarini hisobga olgan holda o'tishni davom etishlari mumkin [21].

Tezkor va maxsus xizmatlarning ko'k yoki qizil yoxud ko'k va qizil rangli yalt-yalt etuvchi mayoqchalar va maxsus tovushli ishorasi yoqilgan transport vositalari yaqinlashib kelayotgan bo'lsa, piyodalar qatnov qismidan o'tmasliklari, unda harakatlanayotganlari esa, ushbu transport vositalariga yo'l berishlari va zudlik bilan qatnov qismini bo'shatishlari kerak [22].

Yo'nalishli transport vositalarini faqat qatnov qismidan baland joylashgan kutish maydonchalarida, ular bo'lmaganda esa, trotuar yoki yo'l yoqasida kutishlari kerak [23]. Qatnov qismidan baland joylashgan maydonchalar bilan jihozlanmagan bekatlarda yo'nalishli transport vositalari to'liq to'xtagandan so'ng unga chiqish uchun qatnov qismiga chiqishga ruxsat etiladi. Undan tushgandan keyin ushlanib qolmasdan qatnov qismini bo'shatishlari shart [24].

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-son qarori.
2. Toshtemirov D.E., Niyozov M.B., Yuldashev U.A., Irsaliev F.Sh. Resource support of distance course information educational environment // Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020, pp. 399-400
3. Shoyadbek, T. (2023). LACETTI GENTRA AVTOMOBILINING NAZORAT-OLCHOV ASBOBLARI PANELIGA GAZ BALLONLI MOSLAMA UCHUN DATCHIK ORNATISH LOYIHASI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(32), 79-81.
4. Axmadjonovich, T. R. S. (2023). YENGIL AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN DETALLARINING YEYILISHINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 332-336.
5. Qosimov, I., & To'raev, S. (2023). ZAMONAVIY AVTOMOBILLARINING RUL TORTQILARIDA QO'LLANILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLARI. Scientific Impulse, 1(10), 1854-1856.
6. Ahmadjonovich, T. R. S. A. I., & KOMPOZITSION, Y. B. G. B. I. (2022). POLIMER MATERIALLAR TAXLILI. Ilmiy impuls.

7. Axmadjonovich, T. S. (2023). KOMPOZIT POLİMER MATERIALLARNING Atrof-muhitga VA INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI. Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali, 11, 666-669.
8. Baynazarov, Khayrullo; Turayev, Shoyadbek; Giyasidev, Abdumannob; Ismailov, Sarvarbek; Maxammadjonov, Nurmuxammad; Sotvoldiyev, Xasanboy Calculation for variations in resistance force during trailer unloading device operation E3S Web of Conferences 2023.
9. Mamadzhanov, Bahodirjon; Shukraliev, Abrorbek; Mannobboev, Shukhratbek; Turaev, Shoyadbek; Patidinov, Aslidin; Mavlyanova, Shakhnoza Dielectric separation E3S Web of Conferences 2023
10. Шипулин Ю. Г., Холматов У. С. Интеллектуальные дискретные системы для контроля и управления параметрами технологических процессов на основе волоконных и полых световодов //Монография, Андижан.–2018.–С. – 2018. – С. 1-140.
11. Холматов У. С. Анализ шумовых факторов в волоконных и полых оптических датчиках информационно-измерительных систем //Технология новых материалов: перспективы развития полимерных композиционных материалов, применяемых в машиностроении. Международной научно-практической конференция, Андижан. – 2022. – С. 197-201.
12. Холматов У. С. СТАТИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ОПТОЭЛЕКТРОННЫХ ДИСКРЕТНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ДЛЯ АВТОМАТИЧЕСКОГО ИЗМЕРЕНИЯ ПЕРЕМЕЩЕНИЙ И РАЗМЕРОВ //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2023. – №. 2. – С. 190-201.
13. Холматов У. С. РАСШИРЕНИЕ ТЕОРИИ АДАПТИВНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ ПРИМЕНИТЕЛЬНО К МНОГОСВЯЗНЫМ ОБЪЕКТАМ //НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МАШИНОСТРОЕНИЕ. – 2023. – №. 1. – С. 376-382.
14. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 471. – C. 06015.
15. Zhumaev O. A. et al. PROBLEMS OF OPTOELECTRONIC TRANSDUCERS FOR GAS-MEASURING INSTALLATIONS DESIGN AND DEVELOPMENT //ВЕСТНИК. – С. 113.
16. Xolmatov U. S., Qobilova A. U., Akbarova M. U., Xolmatov S. U. ANDIJON VILOYATIDA VUJUDGA KELGAN YO'L TRANSPORT HODISALARINI TAHLILI //Международной научно-практической конференции на тему “Технология новых материалов: перспективы развития полимерных композиционных материалов, применяемых в машиностроении”. Андижан. – 2022. – С. 191-196.
17. Xolmatov U., Xolmatov S. YO'L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA PIYODA VA PIYODA BOLALARING O'RNI //Science and innovation in the education system. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 8-15.

18. Xolmatov U. S., Umid o'g'li X. S. YO 'L TRANSPORT HODISALARINI VUJUDGA KELISHIDA "AVTOMOBIL-HAYDOVCHI-YO 'L-PIYODA-MUHIT" TIZIMINING AHAMIYATI //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 19-26.
19. Икромов Н. А., Холматов У. С., ўғли Холматов С. У. ҲАЙДОВЧИЛАРНИНГ ИШ ТАЖРИБАСИНИ ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАСИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 11-18.
20. Xolmatov U. S. et al. YO 'L TRANSPORT HODISALARINI KELIB CHIQISHIGA SABABCHI BO 'LUVCHI OMILLAR //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1129-1138.
21. Холматов У. С., ўғли Раимоҳунов Б. Б., ўғли Холматов С. У. ШАҲАР КЎЧАЛАРИНИНГ ТИРБАНД ҲУДУДЛАРИДАГИ СОДИР БЎЛАЁТГАН ЙЎЛ ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 873-883.
22. Ikromov N. A. et al. SHAHAR KO 'CHALARIDA TRANSPORT VOSITALARINING HARAKAT JADALLIGINI O 'RGANISH //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 863-872.
23. Xolmatov U. Avtomobil yollarida yol transport hodisasini vujudga kelishida" Avtomobil-Haydovchi-Yol-Piyoda-Muhit" tizimining ahamiyati" //Scienceweb academic papers collection. – 2023.
24. Xolmatov U. S., Xolmatov S. U. HARAKATLANISHDA YO'L TRANSPORT HODISALARINI KELIB CHIQISHIGA SABABCHI BO'LUVCHI OMILLAR //MASHINASOZLIK ILMIY-TEXNIKA JURNALI. – 2023. – №. 1. – С. 552-559.